

## QOBILIYAT FAOLIYATDA NAMOYON BO'LUVCHI INDIVIDUAL PSIXOLOGIK JARAYON

**Yuldasheva Mohinur Yangiboy qizi**

*Nukus Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika  
fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali siz qobiliyat haqida tushunchaga, uning turlari va faoliyatda namoyan bo'lishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'z:** *Umumiy qobiliyat, Maxsus qobiliyat, Faoliyat, Iste'dod, Iqtidor, Talant.*

Qobiliyat bu insoning psixologik xususiyati bo'lib, bilim ko'nikma malakalarni egallashidir. Qobiliyat bu imkoniyatlardan iborat jarayodir. Masalan, boladagi matematikaga bo'lgan qobiliyat uning matematik bo'lishi uchuni yaratilgan imkoniyatdir, buni rivojlantirish insoning o'z qo'lida ya'ni bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanishi lozim. Insonda turli xil qobiliyatlar bo'lishi mumkin uning rivojlantirish insoning o'z qo'lida. Qobiliyat insonda birdaniga rivojlanib qoladigan faoliyat emas buning uchun inson harakat qilishi kerak. Qobiliyat faqat faoliyatda namoyon bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Ya'ni inson biror bir faoliyatni amalga oshirishi, insonda qobiliyatning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Inson bu faoliyat jarayonida qobiliyatga ega bo'lish uchun, bu faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirib borishi kerak. Qobiliyat bilim va malaka ko'nikmalarning o'zida namoyan bo'ladigan jarayon emas, aksincha ularni egallash jarayonida namoyon bo'ladi.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim. Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi. Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

### ***Qobiliyatning kengligi va yo'nalishiga ko'ra 2 turi mavjud.***

1. Maxsus insoniy qobiliyatlar. Ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

2. Umumiy qobiliyatlar. Insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa

xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi. Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uch turga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb klassifikatsiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi.

*Ilmiy qobiliyat* abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizik, matematik qobiliyat, kimoya, filosiya, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar.

*Badiiy qobiliyat* sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'limini, o'tkir emosional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

*Amaliy qobiliyat* praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Odam egallaydigan faoliyat uning xususiyatlariga yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat taraqqiyotining juda yuksak darajasida bo'lsa ham qondira olmaydi. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyatlar tarkibi aniq faoliyat talabi bilan belgilanadi va har turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat, adabiy qobiliyat, pedagogik, musiqaviy, ixtirochilik va shifokorlik qobiliyatlari tuzilishi maxsus tarkibga ega. Aniq qobiliyatlar tarkibini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari orasida ayrimlari yetakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini egallaydi. Masalan, pedagogik qobiliyatlar tarkibida yetakchi sifat pedagogik takt, kuzatuvchanlik, bolalarni sevis, ularga nisbatan yuksak talabchanlik, bilimlarni berishga ehtiyoj, yordamchi tarzda tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Har turli qobiliyatlarda bir emas, balki bir necha turdagi faoliyat turlari talablariga javob beradigan birmuncha umumiy sifatlarni ajratishimiz mumkin, bundan tashqari, mazkur faoliyatni bir muncha torroq doirasi uchun javob beruvchi maxsus sifatlarni ajratishimiz mumkin. Bu narsa ularda har tomonlama qobiliyatlar borligi, har turli kasblar, mashg'ulotlarning keng sohalariga doir umumiy qobiliyatlar borligi haqida gapirish imkonini beradi. Bu ikkinchi signallar tizimi haqidagi ta'limot bilan bog'liqdir.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta'lim, xoh mehnat, xoh o'yin, xoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy

jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorligidagi harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat qanchalik ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlarni uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganlik tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi aynan haqiqatdir. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz.

1) *Matematik qobiliyat* matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi yengillik, unumlilik, masala yechishda fikr yuritishni epchilligi kabilar.

2) Adabiy qobiliyat nafosat hislarining yuksak taraqqiyoti darajasi xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonligini, "til zehni", behisob xayolan ruhiyatga qiziquvchanlik, intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan manbalari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarda – mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali va serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unim bo'ladi. Ba'zi odamlar ishlariga ijodiy yondashsalar, ba'zi insonlar esa ishiga ijodiy yondashmaydi. Kishilarning mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlarini qandayligini aniqlab olamiz.

Qobiliyat-kishining muayyan faoliyatiga bo'lgan layoqatidir. Kishilar qobiliyati xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyat talaba etadi. Kishi faoliyatining har xil turlarga muvofiq, nazariy va amaliy

qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi. Biror sohada qobiliyati sezilarliroq bo'lib ko'rinadigan ayrim kishilarni qobiliyatli kishi qobiliyatli matematik, qobiliyatli musiqachi deyiladi. Ayrim kishilarning qobiliyati birgina sohada emas, balki bir nechta sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday kishilar har tomomlana qobiliyatli kishilardir.

### **Қобилиятни аниқлаш тести.**

Ушбу қобилиятни аниқлаш методикаси Айзенк тест сўровномаси асосида тузилган.

Бу методикани қаерда қўллаш мумкин?

*Биринчидан*, улар академик лицей ёки касб хунар коллежига ўқиш учун келган талабаларга ўз шахсий йўналишини тўғри белгилашларига ёрдам беришдан қўл келади.

*Иккинчидан*, уларни ўқитиш самарадорлигини ошириш мақсадида қўлланилиши мумкин. Ўқитувчи ўқувчилар қобилиятини, қизиқишларини аниқлаб, ундан ўз дарсларида фойдаланиши мумкин.

Тестни тўғри қўллаш учун қуйидаги шартларга қатъий амал қилинади:

1. Ажратилган вақт бирлигига (80 та савол учун 40 дақиқа) қатъий риоя қилиш.
2. Синалувчининг савол мазмунини тўғри идрок этишга ва тушунилишига эришиш.
3. Жавоблар синалувчининг мустақил фикрига асосланганлигига эришиш.
4. Саволларга берилган жавобларни ишлаб чиқиш (100 баллик тизим асосида)

Синалувчи саволларни диққат билан ўқиб чиқади. Қайси савол ўзи хақида кетаётганига ишонч ҳосил қилса, шу саволга белги қўяди, қолган саволларга ҳеч қандай белги қўймайди. Синалувчи саволларга шошилмасдан очиқ ойдин ва тўғри жавоб бериши лозим. Белгиланган саволларнинг кам ёки кўплиги муҳим эмас. Синалувчида «қанча кўп саволларни белгиласам, шунча ижобий жавоб оламан» деган фикр туғилмаслиги керак.

Саволлар..

1. Ўйлаётганларингизни яхши баён этиб бера оласизми?
2. Тажриба ва синовлар ўтказишни яхши кўрасизми?
3. Карта ёки схема ёрдамида исталган манзилгоҳни қийналмасдан топа оласизми?
4. Ўзингизга таниш куй остида қўшиқ куйлай оласизми?
5. Арғимчоқда учишни ёқтирасизми?
6. Уйда ёлғиз ўтиришдан кўра дўстларингиз билан суҳбатлашиш афзалми?
7. Ҳайвонларга озор бермай, яхши муносабатда бўласизми?
8. Ёлғизликни хаёл сўриб юришни ёқтирасизми?
9. Сиз адабиётга қизиқасизми?
10. Суратга туширишни ёқтирасизми?
11. Қиладиган ишларингизни олдиндан ён дафтарингизга ёзиб қуясизми?
12. Ўзингиз ёқтирган қўшиқларни тез-тез хиргойи қилиб юрасизми?
13. Ўзингизни кучли ва кучсиз томонларингизни яхши биласизми?

14. Бошқаларнинг маслаҳатига қулоқ тутмай, мустақил қарор қабул қила оласизми?
15. Кўпгина масалаларда бошқаларга маслаҳат бера оласизми?
16. Психология билан қизиқасизми?
17. Ҳазил мутойибани ёқтирасизми?
18. ранг баранг безатилган китобларни яхши кўрасизми?
19. Одамларнинг хатти-ҳаракатларини кузатиб юрасизми?
20. Ҳар хил имо ишоралар ва ҳаракатларни яхши эслаб қоласизми?
21. Спортга қизиқасизми?
22. Қийналмасдан бир гуруҳ одамларни бошқара оласизми?
23. Дунёвий муаммоларга масалан экологияга қизикасизми?
24. Саёхатга балиқ овига боришни ёқтирасизми?
25. Ҳар хил сўз ўйинларини ва топишмоқлар топишни ёқтирасизми?
26. Нарсалар билан рақамлар орасидаги боғланишни аниқлай оласизми Ёш болалар билан ўйин ўйнашни ёқтирасизми?
27. Югуришдан кўра футбол, волейбол, баскетбол ўйнаш маъқулми?
28. Гулларни номини ёддан биласизми?
29. Тоққа чиқишни ёқтирасизми?
30. Тез-тез мусиқа эшитиб турасизми?
31. Нарсаларни бузиб бошқатдан теришни яхши кўрасизми?
32. Радио, телевизордан эшитган маълумотларни яхши эслаб қоласизми?
33. Ўз фикрингизни баён қилганда расм ва схемалардан фойдаланасизми?
34. Ҳисоб-китоб ишларини яхши олиб борасизми?
35. Ўйинга тушишни яхши кўрасизми?
36. Тез-тез бармоқларингиз ёрдамида мусиқа чалиб турасизми?
37. Энг яқин дўстларингиз борми?
38. Ҳаётингиз хақида ўйлаб турасизми?
39. Ўзингизни фермер сифатида тасаввур қила оласизми?
40. Шахсий ташвишлар сизни кўпроқ қизиқтирадими?
41. Бирор нарсани хал этишда дўстларингиз билан маслаҳатлашасизми?
42. Шахмат ўйнашни ёқтирасизми?
43. Нарсаларнинг келажакда қандай бўлишини тасаввур қила оласизми,?
44. Мусиқа сдобида куй ижро эта оласизми?
45. Нарса хақида тўла тасаввурга эга бўлишингиз учун уни ушлаб кўришингиз шартми?
46. Баҳслашганда ўз фикрингизни қатъият билан ҳимоя қиласизми?
47. Йўлда бирор куйни хуштак орқали чалиб юрасизми?
48. Экология ҳозирги куннинг энг асосий муаммосими?
49. Бирор жамоа гуруҳ ёки қўмита таркибида бўлишни хоҳлайсизми?
50. Бошқалар билмайдиган қизиқиш эрмагингиз борми?

51. Нарсаларнинг моҳиятини баҳолаш учун уларни турли гуруҳларга ажратасизми?

52. Сиз расмлар томоша қилишни ёқтирасизми?

53. Сўзлашаётганда имо-ишораларни кўп ишлатасизми?

54. Кўзингиз тушган хамма ёзувларни хатто буюмларнинг этикеткаларини ҳам ўқийсизми?

55. Мантиқий ўйинларни яхши кўрасизми?

56. Тушунтирганда мисоллар келтирасизми?

57. Одамнинг хамма аъзолари қаерда жойлашганини яхши биласизми?

58. Келишмовчилик ва жанжалларни ҳал қила оласизми?

59. Доим бирор нарсани ўрганишни ўйлаб юрасизми?

60. Бир марта эшитган куйингизни эслаб қоласизми?

61. Билимларни тажриба ва синов орқали ўзлаштирасизми?

62. Сўзлашганда китобларни ўқиган образлардан фойдаланасизми?

63. Алгебрадан кўра геометрия сизга кўпроқ ёқадими?

64. Компьютер билан ишлашни ёқтирасизми?

65. машҳур актёрларнинг гапларини ўзларига ўхшатиб айтишни яъни тақлид қилишни ёқтирасизми?

66. Ҳаётингизни қўшиқсиз тасаввур қила оласизми?

67. Тўйларда қатнашни ёқтирасизми?

68. Планеталарнинг номларини биласизми?

69. Кундалик юритасизми?

70. Уй хайвонларига овқат беришни ёқтирасизми?

71. Ҳаётингизда бирор нарсага эришиш учун ҳамма нарсага тайёرمىсиз?

72. Ўсимликларга сув қўйишни ёқтирасизми?

73. Тез-тез концертларга бориб турасизми?

74. Йўлда ўз шахсий муаммоларингиз хақида ўйлаб юрасизми?

75. Математикани яхши кўрасизми?

76. Дарс пайтида дафтарингизга баъзи нарсаларнинг расмини чизиб ўтирасизми?

77. Жуда кўп сўзларнинг маъносини биласизми?

78. Овоз чиқариб фикрлашни ёқтирасизми?

79. Одамлар қийналганда сиздан маслаҳат сўраб туришадими?

Энди бу саволларга жавобларни баҳолаш устида тўхталамиз. Синалувчи ўзи белгилаган савол номерларни қуйидаги жадвалда доира ичига олиб чиқади.

Қайси устунда 8-10 доиралар бўлса синалувчида ўша қобилият устун бўлади. Қайси қобилиятнинг устунлигига қараб ўқувчининг нимага қизиқиши хақида сўз юритиш мумкин.

А —лингвинистик қобилият. Бундай қобилиятли кишиларда ўқишга шеъриятга бахс мунозарага ҳазил ҳажв ва ҳикояларга қизиқиш кучли бўлади.

В — математик қобилият. Бу қобилияти устун бўлган кишилар абстракт белгилар, формулалар, рақамлар билан ишлашни ёқтиришади.

С- кўриш қобилияти. Бу қобилиятга эга кишиларда тасвирий санъатга хайкалтарошлик ва чизмачиликка қизиқиш катта бўлади.

Д кинетик қобилият. Бу қобилият эгалари рақс, рол ижро этиш, жисмоний машқлар, спорт ўйинлари ва драмага қизиқадилар.

Е — табиатсеварлик қобилияти. Бу қобилият эгалари сайру-саёҳатга, экскурсияларга кўпроқ қизиқади.

Ғ- мусиқий қобилият. Бу қобилият эгалари кўшиқ айтишни, мусиқа тинглашни, жўр бўлишни яхши кўрадилар.

Г- суҳбатдошлик қобилияти. Бу қобилият соҳиблари ҳамдард, ҳамкор, хушмуомала бўлишни, биргаликда турли лойиҳалар яратишни хуш кўришади.

Н — фикрлаш қобилияти. Бу қобилият эгалари доим фикрни бир жойга йиғиб тўплай олади, яхши ва чуқур фикрлайди, хаёл суриб юришни яхши кўришади.

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	11	10	14	12	13	15	16
17	19	18	21	20	24	22	23
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69
78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	11	10	14	12	13	15	16
17	19	18	21	20	24	22	23
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69
78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	11	10	14	12	13	15	16
17	19	18	21	20	24	22	23
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69
78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ushbu maqola orqali siz qobiliyat nima ekanligi va uni qanday rivojlantirish kerakligini. Qobiliyatni qanday aniqlash mumkinligini, qobiliyatning qanday turlari borligi haqida bilimlarga ega bo'lasiz. Qobiliyatning faoliyatda namoyon bo'luvchi individual psixologik jarayon ekanligiva va faoliyatda qanday namoyon bo'lishi bilib olishingiz mumkun. Qobiliyatni doimo rivojlantirib borish keraklini va shu orqali muvaffaqiyatga erish mumkinligi haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.F.I.Xaydarova, N.I.Xalilova, „Umumiy psixologiya” darsligi (2009).
- 2.EG'oziyev., „Umumiy psixologiya” Toshkent-2002.
- 3.Z.Nishanova, D.Qarshieva, N.Atabaeva, Z.Qurbonova, „Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” Toshkent-2015.